



# YEVROPA ITTIFOQI- O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'rnatildi va izchil rivojlanib bormoqda. Yevropa Ittifoqining 2019 yilgi Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi ushbu munosabatlar uchun umumiy mintaqaviy asosni taqdim etadi.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitim (ShTB) 1999 yildan beri amalda, bu esa keng ko'lamlı munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, jumladan:

siyosiy muloqot

samarali boshqaruv bilan bog'liq masalalar bo'yicha hamkorlik

savdo

adliya va ichki ishlar

demokratiya va inson huquqlari

biznes va investitsion munosabatlar

iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik

texnik yordam

2022-yil iyul oyida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (EPCA) bo'yicha muzokaralarni yakunladi, bu ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashtiradi, hamkorlikning yangi yo'nalishlari sonini ko'paytiradi va savdo-iqtisodiy munosabatlarning normativ-huquqiy bazasi sezilarli darajada yaxshilanadi.

## HAMKORLIK SOHALARI

biznes muhiti

sud tizimi va xavfsizlik xizmatlari

mehnat sharoitlari

ma'muriy javobgarlik va samaradorlik

inson huquqlari va samarali boshqaruv

Yevropa Ittifoqi ushbu islohot dasturini texnik va moliyaviy yordam orqali qo'llab-quvvatlaydi va O'zbekiston hukumatini inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari erkinligi va samarali boshqaruv masalalari bo'yicha muntazam ravishda jalb qilib keladi. Yevropa Ittifoqi islohotlar jarayoni hamda xalqaro me'yorlar va ilg'or tajribalarga rioya qilish masalalari bo'yicha jamoatchilik maslahatlarini o'tkazishni muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston o'z qo'shnilari bilan iqtisodiy sheriklikni rivojlantirish, o'tmishdagi keskinlikni yumshatish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, xususan, Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegara va suv resurslarini boshqarish masalalarida faol ishlamoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo va dunyoning boshqa qismlari, jumladan, Yevropa o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchaytirish tarafdori.

2017-yildan buyon O'zbekistonda Yevropa investitsiya banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki faoliyat ko'rsatmoqda va amalga oshirilayotgan loyihalar soni va hajmi sezilarli darajada oshib borishda davom etmoqda.

Joriy dasturlash davrida (2021-2027) Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining ustuvor yo'nalishlari demokratik boshqaruv va raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash; inklyuziv, raqamli va yashil rivojlanish; aqlli va ekologik toza agro-oziq-ovqat sektorini rivojlantirish bo'lmoqda. Yevropa Jamoasining (Team Europe) ikki tomonlama tashabbusi: "Zamonaviy va barqaror qishloq-oziq-ovqat sektorini qo'llab-quvvatlash va barqaror turmush vositalari" barcha ustuvor sohalarda sinerjiyani yaratadi.

**Yevropa Ittifoqi O'zbekistonga Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun ariza topshirishda ham texnik yordam ko'rsatmoqda.** 2021-yilning Aprel oyida O'zbekiston Yevropa Ittifoqiga bojsiz kirishni ta'minlaydigan Yevropa Ittifoqining Preferentsiyalarning umumiy sxemasiga (GSP+) qo'shildi, bu esa Yevropa Ittifoqi bozoriga ko'pgina tarif liniyalari uchun bojsiz kirish imkonini beradi.

**2021-2024 yillarda ikki tomonlama hamkorlik uchun €76 million:**



SAMARALI BOSHQARUV  
VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA



INKLYUZIV, RAQAMLI  
VA YASHIL O'SISH



AQLLI, YASHIL QISHLOQ-OZIQ-OVQAT  
SEKTORINI RIVOJLANTIRISH